

JADIDLAR MA'NAVIY MEROSIDA MEHNAT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI TO'G'RISIDA

Xolmirzaeva Jumagul Xamdamovna

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Farg'ona davlat

universiteti mustaqil izlanuvchisi

E. mail. nodirjon89.86@gmail.com

Tel: +998999938986

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21272482>

Annotatsiya: Maqolada jadidlar ma'naviy merosida mehnat va mehnat madaniyati masalasining falsafiy-ijtimoiy mazmuni tahlil qilinadi. Yangi O'zbekiston sharoitida jadidlar g'oyalarini qayta o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etishning dolzarbligi asoslanadi. Jadid mutafakkirlarining mehnatni taraqqiyot omili sifatida talqin etishi, kasb-hunar, ma'rifat va mas'uliyat uyg'unligiga doir qarashlari yosh avlod tarbiyasida muhim dasturiy manba ekani ko'rsatiladi. Maqolada mehnat madaniyatini yuksaltirishda milliy merosga tayanish zarurati, davlat siyosati va islohotlar bilan uyg'unlikda tahlil etilgan. Jadidlar merosi bugungi ma'naviy taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'naviy meros, mehnat, mehnat madaniyati, ma'rifat, taraqqiyot, islohot, Yangi O'zbekiston, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyat, falsafiy tahlil, innovatsiya.

KIRISH

Jadidlar ma'naviy merosini o'rganish bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chunki jadidchilik harakati nafaqat ma'rifatparvarlik, balki milliy uyg'onish, mehnatga yangicha munosabat va ijtimoiy faollikni shakllantirish g'oyasini ilgari surgan edi. Prezident Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, “Jadid bobolarimiz milliy taraqqiyot, erkin va farovon hayot uchun kurashgan”. [5; 456] Bu esa ularning merosini chuqur o'rganishni talab etadi.

So'nggi yillarda jadidlar merosini tadqiq etish, ular asarlarini nashr qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ilmiy anjumanlar, monografiyalar, hujjatli to'plamlar chop etildi. Biroq mazkur sohada tizimli tahlillar, ayniqsa mehnat madaniyati nuqtai nazaridan maxsus tadqiqotlar yetarli emas. “Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”. [1] Yuqorida ko'rsatilgan muammolarning ob'ektiv omillari sifatida sovet davrida jadidchilikka biryoqlama munosabat, arxiv materiallarining cheklanganligi, ilmiy maktablar uzviyligining uzilishi kabi holatlarni keltirish mumkin. Tarixchi olim jadidlar faoliyatini “millatni uyg'otishga qaratilgan kompleks ma'naviy harakat” sifatida baholaydi. [4; 64] Demak, ular merosini yangi yondashuvlar asosida o'rganish zamon talabi hisoblanadi.

TADQIQOT METODLARI

Maqolada tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-tahliliy yondashuv, tizimli tahlil, germeneytik talqin, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Jadidlar asarlari va zamonaviy islohotlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik falsafiy jihatdan asoslandi.

NATIJALAR

Yangi O'zbekiston sharoitida jadidlar ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda. Bu jarayon milliy o'zlikni anglash, tarixiy adolatni tiklash va ma'naviy tiklanish

jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Prezident Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Milliy taraqqiyotimizni jadidlar orzu qilgan darajaga ko‘tarish - barchamizning muqaddas burchimizdir”¹. Ushbu fikr jadidlar g‘oyalarining zamonaviy islohotlar mazmunida o‘z aksini topayotganini ko‘rsatadi.

Jadidlar mehnatni inson kamolotining asosiy sharti sifatida talqin etganlar. Ularning qarashlarida mehnat faqat iqtisodiy faoliyat emas, balki ma’naviy kamolot, ijtimoiy mas’uliyat va vatanparvarlik bilan uyg‘un tushuncha hisoblanadi. Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov asarlarida kasb-hunar egallash, ilm bilan mehnatni uyg‘unlashtirish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish g‘oyalari markaziy o‘rinni egallaydi. Ular yoshlarni “befoyda umr kechirish”dan ogohlantirib, samarali mehnatni hayot mazmuni sifatida ko‘rsatganlar.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar - ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, kasb-hunarga o‘qitishni kuchaytirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar jadidlar orzu qilgan jamiyat modeli bilan uyg‘unlashadi. Zero “Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo‘lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma’rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega” [6] “Inson qadri uchun” tamoyili mehnatga munosabatni o‘zgartirishni talab etadi. Bu esa mehnat madaniyatini yuksaltirish orqali amalga oshiriladi.

Jadidlar merosida mehnat madaniyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mehnatning ma’naviy-axloqiy mohiyati;
2. Kasb va ilm uyg‘unligi;
3. Jamoat manfaatini ustuvor qo‘yish;
4. Intizom va mas’uliyat;
5. Zamonaviy bilimlarga ochiqlik.

Bu tamoyillar bugungi islohotlar mazmuniga mos keladi. Masalan, yoshlar bandligini ta’minlash, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kabi vazifalar yuqori mehnat madaniyatini talab etadi. Jadidlar esa o‘z davrida milliy iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun hunarmandchilik, savdo va sanoatni rivojlantirish g‘oyasini ilgari surganlar.

Jadidlar harakati “milliy modernizatsiya dasturi” vazifasini bajargan. Demak, ularning mehnat va taraqqiyot haqidagi qarashlari bugungi modernizatsiya jarayonlari uchun nazariy manba bo‘la oladi. Ayniqsa, ta’lim-tarbiya jarayonida jadidlar asarlaridan foydalanish yoshlarda fidoiylilik, mas’uliyat va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson kapitaliga ustuvor ahamiyat berilishi ham jadidlar g‘oyalari bilan hamohangdir. Chunki ular insonni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko‘rganlar. Mehnat madaniyatini rivojlantirish orqali jamiyatda intizom, sifat, samaradorlik va ijtimoiy adolat muhitini mustahkamlash mumkin. Shuningdek, jadidlar merosini o‘rganish faqat tarixiy adolatni tiklash emas, balki amaliy ahamiyatga ega. Ularning mehnatga oid g‘oyalari milliy g‘urur, kasbiy mas’uliyat va innovatsion fikrlashni shakllantirishda dasturiy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa islohotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMALAR

So‘nggi yillarda jadidlar merosini tiklash va o‘rganish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Ularning nomini abadiylashtirish, asarlarini nashr etish, ilmiy tadqiqotlar olib borish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu borada qabul qilingan qaror va farmonlar jadidlar faoliyatiga xolisona baho berish imkonini yaratdi.

Olimlar - Tohir Qazaqov, N.Jo'raev, Sh.Qurbonov va boshqalar jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilganlar. Ular jadidlarni milliy modernizatsiya, ma'naviy yangilanish va ijtimoiy faollik g'oyasining tashabbuskorlari sifatida baholaydilar. Biroq mehnat madaniyati nuqtai nazaridan maxsus kompleks tadqiqotlar kam uchraydi.

Qonunchilikdagi o'zgarishlar, xususan, ta'lim to'g'risidagi qonunning yangi tahriri, yoshlar siyosatiga oid hujjatlar, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari mehnatga bo'lgan munosabatni zamonaviy asosda qayta shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda milliy merosdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadidlar asarlarida mehnat tarbiyasi masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Masalan, Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida halol mehnatni inson sharafiga bilan bog'laydi. Behbudiy esa iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun savdo va hunarmandchilikni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu g'oyalar bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati bilan uyg'un.

Shu bilan birga falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyamizda tadqiq etganimiz jadidlarning yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega.

“- jadidlar zamonaviy bilimni e'tiborga olgan holda, yosh mutaxassislarni mehnatga o'rgatishga intilishgan. Ularning metodologiyasi aniq va samarali ta'lim berishga asoslangan;

- jadidlar ta'limni yoshlar va jamiyatni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida qabul qilgan. Ular ta'lim o'rganishda tekshiruv va amaliy tajribaga e'tibor berishgan;

- jadidchilar yoshlarning faolligini oshirishga, ularni dunyoviy bilim bilan ta'minlashga, xurofot va “an'ana”larga qarshi kurashishga harakat qilishgan;

- jadidlarning yosh mutaxassislarga ta'lim berish va rivojlantirish usullari va ko'nikmalari jadid falsafasi, o'zgarishlar, inson huquqlari va mustaqil fikirlashga asoslangan”. [7; 39]

Bundan tashqari yangi o'rganilgan manbalar asosida jadidlar merosidan foydalanishning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- ta'lim dasturlariga jadidlar asarlarini keng joriy etish;
- mehnat tarbiyasiga oid milliy modelni ishlab chiqish;
- yoshlar siyosatida ma'naviy merosga tayanish;
- kasb-hunar ta'limida milliy qadriyatlarni integratsiya qilish.

Demak, jadidlar merosidagi mehnat madaniyati haqidagi qarashlar zamonaviy islohotlarni ma'naviy jihatdan boyitadi va ularning samaradorligini oshiradi.

XULOSA

Jadidlar ma'naviy merosida mehnat madaniyatini rivojlantirish masalasi bugungi kunda alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar inson kapitali, kasbiy mahorat va ma'naviy barkamollikni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Jadidlar esa o'z davridayoq mehnatni taraqqiyot, ma'rifat va milliy yuksalishning asosiy sharti sifatida talqin etganlar. Yuqorida ko'rsatilganidek, jadidlar merosi yosh avlod uchun dasturiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Ularning mehnat, mas'uliyat, ilm va kasb-hunar haqidagi qarashlari bugungi islohotlar mazmuni bilan uyg'unlashadi. Shuningdek, jadidlar g'oyalari milliy qadriyatlarga tayangan holda zamonaviy modernizatsiyani amalga oshirish imkonini beradi. Demak, jadidlar ma'naviy merosini mehnat madaniyati nuqtai nazaridan chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Bu esa milliy taraqqiyot strategiyasini ma'naviy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoyev Sh.M. Prezident: Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. // <https://president.uz/oz/lists/viyew/6941>. 22.12.2023.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
4. Qazaqov T. Jadidchilik harakati falsafasi. - Toshkent: Ma'naviyat, 2019. B.64.
5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021. B.456
6. Prezident Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://sudyalaroliykengashi.uz/uz/reports/211>. 30. 09.2020.
7. Xolmirzayeva J. Yosh mutaxassislar mehnat madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya. Buxoro. BuxDU, - 2025. – B.39.